




O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti tomonidan xalqaro onlayn konferensiya o‘tkazildi.

2020 yil mamlakatimizda “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilindi. Bu respublikamiz ilm ma’rifat, san‘at, madaniyat sohasi vakillari zimmasiga mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 fevraldagi.



56/F farmoyishiga muvofiq, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosida san'at va madaniyat masalalari» mavzusida onlayn tarzda o'tkazilgan III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham ushbu maqsadlarni ko'zda tutadi. Unda qator xorijiy davlatlardan 10 dan ortiq professor-o'qituvchi, Respublikamiz Oliy o'quv yurtlari, madaniyat, san'at sohasining 30 ga yaqin vakillari, yosh olimlar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining 45 nafar olim hamda doktorantlari o'zlarining dolzarb mavzulardagi ma'ruzalari bilan qatnashdi.




Anjumanda “O’rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari ilmiy merosining jahon madaniyati va san’ati taraqqiyotidagi o’rni”, O’rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari ilmiy merosining san’at turlarining taraqqiy etishidagi ahamiyati”, “O’rta asr Sharq allomalarining ta’lim-tarbiya va shaxsning ma’naviy kamoloti xususidagi qarashlari” singari mavzularda ma’ruzalar qilindi.





Ushbu konferensiya ZOOM dasturi orqali onlayn ravishda olib borildi.



Xalqaro konferensiya jarayonlari to'g'risidagi maxsus ko'rsatuv

Matbuot xizmati